IQTISODIY O'SISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING KREDIT SALOHIYATINI OSHIRISH YO'LLARI

Ergashova Nilufar Sobirovna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi
DOI : 10.67620/TIPUjournal.330001

ANNOTATSIYA

Maqolada iqtisodiy o'sish va bank kredit faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Tijorat banklarining kredit salohiyatini belgilovchi omillar ko'rib chiqiladi va uni oshirishning amaliy yo'nalishlari taklif etiladi. Bular resurs bazasini mustahkamlash, kapital yetarliligini ta'minlash, kredit risklarini boshqarish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va kredit mahsulotlarini diversifikatsiya qilishdir.

КАЛИТ СЎЗЛАР

tijorat banklari, kredit salohiyati, iqtisodiy o'sish, kapital yetarliligi, kredit riski, muammoli kreditlar, ishlab chiqarish, talab, moliyaviy resurslar, aktivlar, institutsional muhit, valyuta, depozitlar, kredit portfeli, mijozlar, kredit, subordinar qarzlar.

ABSTRACT

The article analyzes the relationship between economic growth and banks' lending activities. It examines the factors determining the lending capacity of commercial banks and proposes practical ways to enhance it. These include strengthening the resource base, ensuring capital adequacy, managing credit risks, implementing digital technologies, and diversifying credit products.

KEY WORDS

commercial banks, lending capacity, economic growth, capital adequacy, credit risk, non-performing loans, production, demand, financial resources, assets, institutional environment, currency, deposits, loan portfolio, customers, credit, subordinated debt.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется взаимосвязь между экономическим ростом и кредитной деятельностью банков. Рассматриваются факторы, определяющие кредитный потенциал коммерческих банков, а также предлагаются практические направления его повышения. К ним относятся укрепление

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

коммерческие банки, кредитный потенциал, экономический рост, достаточность капитала, кредитный риск, проблемные кредиты, производство, спрос,

ресурсной базы, обеспечение достаточности капитала, управление кредитными рисками, внедрение цифровых технологий и диверсификация кредитных продуктов.

финансовые ресурсы, активы, институциональная среда, валюта, депозиты, кредитный портфель, клиенты, кредит, субординированный долг.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda bank tizimi pul oqimlarini taqsimlovchi asosiy mexanizm hisoblanadi. Banklar vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni yig'ib, ularni ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko'rsatish va uy-joy qurilishi kabi sohalarga yo'naltiradi. Iqtisodiy o'sish davrida korxonalar ishlab chiqarishni kengaytiradi, yangi texnologiyalar sotib oladi, aholining daromadi va iste'moli ortadi. Bularning barchasi kreditga bo'lgan talabni oshiradi.

Talab ortishi o'z-o'zidan banklarning kreditlash imkoniyati ham o'sishini anglatmaydi. Bank talabni qondirishi uchun yetarli resurs, mustahkam kapital, samarali risk boshqaruvi, malakali kadrlar va zamonaviy texnologik infratuzilmaga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun kredit salohiyatini oshirish iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashning muhim sharti sifatida qaraladi.

Maqolaning maqsadi iqtisodiy o'sish sharoitida tijorat banklari kredit salohiyatining mohiyatini ochib berish, uni cheklovchi omillarni aniqlash va oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Tijorat bankining kredit salohiyati deganda bankning o'z resurslari, kapitali va risk darajasi doirasida iqtisodiyot sub'ektlariga xavfsiz va daromadli tarzda ajrata oladigan kreditlarning maksimal hajmi tushuniladi. Bu tushuncha faqat kredit portfelining joriy hajmini emas, balki uni sifatli o'stirish qobiliyatini ham ifodalaydi.

Kredit salohiyati quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- Moliyaviy resurslar**.** Aholi va yuridik shaxslar depozitlari, bank o'z kapitali, xalqaro moliya institutlaridan olingan qarzlar, obligatsiyalar chiqarish orqali jalb qilingan mablag'lar.

- Kapital yetarliligi. Bankning zararlarni qoplash va kredit risklarini o'z zimmasiga olish imkoniyati. Bu me'yoriy talablar bilan cheklanadi.

- Aktivlar sifati. Kredit portfelidagi muammoli kreditlarning ulushi va zaxiralar yetarliligi.

- Likvidlik. Bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyati.

- Boshqaruv va texnologik salohiyat**.** Kredit jarayonlarining samaradorligi, skoring tizimlari, kadrlar malakasi va axborot texnologiyalari darajasi.

- Institutsional muhit. Huquqiy baza, garov va kreditorlar huquqlarining himoyasi, kredit tarixi axborot tizimlari.

Bu qismlar o'zaro chambarchas bog'liq. Masalan, depozit bazasi keng bo'lsa-yu kapital yetarli bo'lmasa, bank me'yoriy cheklovlar tufayli kreditlarni ko'paytira olmaydi. Aksincha, kapital yetarli bo'lib resurs bazasi tor bo'lsa, kredit o'sishi qimmat tashqi qarzlarga bog'lanib qoladi.

Iqtisodiy o'sish va kreditlash o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama:

- Kredit iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Investitsiya loyihalari, aylanma mablag'lar va iste'molni moliyalashtirish orqali kredit yalpi talab va taklifni oshiradi.

- Iqtisodiy o'sish kreditga talabni va bank resurslarini ko'paytiradi. Daromadlar o'sishi depozitlarning ko'payishiga, korxonalar foydasining oshishi esa ularning to'lov qobiliyati yaxshilanishiga olib keladi.

Shu bilan birga, iqtisodiy o'sish davri o'ziga xos xatarlarni ham keltirib chiqaradi. Ularning asosiylari quyidagilar:

- Haddan tashqari tez kredit o'sishi. Tez kengayish davrida banklar kredit berish standartlarini yumshatib qo'yishi mumkin. Bu keyingi davrda muammoli kreditlar ulushining oshishiga olib keladi.

- Aktivlar narxidagi pufaklar. Ko'chmas mulk yoki boshqa aktivlar narxining sun'iy oshishi garov qiymatini noto'g'ri baholashga sabab bo'ladi.

- Valyuta riski. Xorijiy valyutadagi kreditlar ulushi yuqori bo'lsa, kurs o'zgarishi qarz oluvchilarning to'lov yukini keskin oshiradi.

- Muddatlar nomuvofiqligi. Qisqa muddatli resurslar hisobidan uzoq muddatli kreditlar berilishi likvidlik muammosini yuzaga keltiradi.

Demak, o'sish sharoitida maqsad kreditni har qanday yo'l bilan ko'paytirish emas, balki barqaror va sifatli kredit o'sishini ta'minlashdir.

Rivojlanayotgan bozorlarda, shu jumladan O'zbekistonda, tijorat banklarining kredit salohiyatini cheklovchi omillarni quyidagicha umumlashtirish mumkin.

Birinchidan, resurs bazasining muddat tarkibi. Depozitlarning katta qismi qisqa muddatli bo'lib, uzoq muddatli investitsiya kreditlarini moliyalashtirish uchun yetarli bo'lmaydi.Ikkinchidan, kapitalning cheklanganligi. Kredit portfeli o'sishi bilan tavakkalga tortilgan aktivlar hajmi ham oshadi va kapital yetarliligi koeffitsienti pasayadi. Natijada banklar yangi kreditlarni ajrata olmay qoladi.Uchinchidan, muammoli kreditlar yuki. Sifatsiz aktivlar zaxira ajratishni talab qiladi, bu foydani kamaytiradi va kapitalni ko'paytirish imkoniyatini toraytiradi.To'rtinchidan, qarz oluvchilar haqida axborot yetishmasligi. Moliyaviy hisobotlarning shaffof emasligi, norasmiy sektorning mavjudligi va kredit tarixi ma'lumotlarining to'liq bo'lmasligi risklarni baholashni qiyinlashtiradi.Beshinchidan, kredit mahsulotlarining cheklangan assortimenti. Bir

xil mahsulotlarga va ayrim yirik qarz oluvchilarga tayanish kredit portfelining konsentratsiya riskini oshiradi.Oltinchidan, texnologik va kadrlar masalalari. Eskirgan axborot tizimlari, qo'lda bajariladigan jarayonlar va risk-menejment bo'yicha malakali mutaxassislar yetishmasligi kredit qarorlarining sifati va tezligiga salbiy ta'sir qiladi.

Kredit salohiyatining asosi barqaror va arzon resurslardir. Bu yo'nalishda quyidagi chora-tadbirlar muhim:

- Aholi va korxonalar depozitlarini jalb qilish. Raqamli xizmatlar, qulay omonat mahsulotlari va ishonchli depozitlarni kafolatlash tizimi orqali depozit bazasini kengaytirish.

- Muddatli depozitlar ulushini oshirish. Uzoq muddatli omonatlar uchun rag'batlantiruvchi stavkalar va mahsulotlar joriy etish.

- Moliyaviy bozordan resurs jalb qilish. Obligatsiyalar, depozit sertifikatlari va boshqa qimmatli qog'ozlar chiqarish, shuningdek ipoteka va aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlardan foydalanish.

- Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik. Uzoq muddatli va nisbatan arzon liniyalarni jalb qilish. Bunda valyuta riskini hisobga olish va uni to'g'ri boshqarish shart.

- Resurs tarkibi bo'yicha monitoring. Aktivlar va passivlar muddatini muvofiqlashtirish (ALM) tizimini kuchaytirish.

Kapital bank kredit faoliyatining "xavfsizlik yostig'i" bo'lib, kredit o'sishining yuqori chegarasini belgilaydi. Kapitalni ko'paytirishning asosiy manbalari: taqsimlanmagan foydani qayta investitsiya qilish, aksiyadorlik kapitalini ko'paytirish, subordinar qarzlar va kapitalga kiritiladigan boshqa instrumentlar orqali me'yoriy kapitalni oshirish, tavakkalga tortilgan aktivlarni optimallashtirish yani aktivlar tarkibini sifatli va kam riskli yo'nalishlarga qayta taqsimlash hamda bazel standartlariga bosqichma-bosqich o'tish. Bunda kapital va likvidlik bo'yicha xalqaro talablarga mos kelish bank tizimining ishonchliligini oshiradi va xalqaro bozorlarga chiqishni osonlashtiradi.

Sifatli kredit portfeli salohiyatning eng muhim tarkibiy qismidir. Muammoli kreditlar kapital va resurslarni "muzlatib qo'yadi". Shu bois kredit siyosatini aniq belgilash lozim. Maqsadli sohalar, qarz oluvchilar toifalari, limitlar va garov talablari ochiq-oydin ko'rsatilishi kerak. Alohida tarmoq, mintaqa, valyuta yoki yirik qarz oluvchilar bo'yicha limitlar belgilash va kredit berilgandan keyin qarz oluvchining moliyaviy holatini muntazam kuzatish va dastlabki ogohlantiruvchi belgilarni aniqlash lozim.

Raqamlashtirish kredit salohiyatini oshirishning eng samarali vositalaridan biridir. Onlayn kredit berish platformalari tashkil etish orqali arizalarni qabul qilish,

baholash va qaror chiqarish vaqtlariini qisqartirishga, xarajatlarni kamaytirishga va xizmat ko'lamini kengaytirishga erishiladi. Katta ma'lumotlar (Big Data) va sun'iy intellect orqali qarz oluvchining xulq-atvori, to'lov tarixi va tranzaksiyalari asosida aniqroq kredit qarorlari qabul qilish mumkin. Bu, ayniqsa, kredit tarixi cheklangan yoki yo'q mijozlar uchun foydali bo‘ladi. Ma’lumotlarni integratsiya qilish natijasida yagona va to'liq kredit axborot bazasi shakllanadi. risklarni kamaytiradi va o'zaro kreditlashni tartibga soladi. Raqamli xizmatlar kengayishi bilan axborot xavfsizligi ham oshib boradi.

Iqtisodiy o'sish yangi sohalar va yangi talablarni yuzaga keltiradi. Banklar buni quyidagi orqali qo'llab-quvvatlashi mumkin:

- Kichik va o'rta biznesni kreditlash. Bu segment iqtisodiy o'sish va bandlikning asosiy omillaridan biri. Uni moliyalashtirish uchun soddalashtirilgan jarayonlar, kafolat fondlari va davlat dasturlaridan foydalanish samarali.
- Mikromoliyalash va ayollar tadbirkorligi. Kam ta'minlangan va chekka hududlardagi aholini moliyaviy xizmatlarga jalb qilish.
- Loyihaviy moliyalashtirish. Infratuzilma, energetika, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida uzoq muddatli investitsiya loyihalarini sindikatsiyalangan kreditlar orqali qo'llab-quvvatlash.
- Ipoteka va iste'mol kreditlari. Aholi daromadlari o'sishi bilan yuqori talab mavjud bo'lgan, ammo me'yorida va qarz yuki nazorat ostida bo'lishi zarur segment.
- Yashil va barqaror moliyalashtirish. Energiya tejash, qayta tiklanuvchi energiya va ekologik loyihalar uchun maxsus mahsulotlar.
- Savdo moliyasi va faktoring. Eksportchilar va importchilar uchun aylanma mablag'larni qo'llab-quvvatlash.

Banklarning o'zi hal qila olmaydigan masalalar ham mavjud. Ularda davlat va Markaziy bankning roli katta:

- Makroiqtisodiy barqarorlik. Past va bashorat qilinadigan inflyatsiya, barqaror valyuta kursi va oqilona foiz siyosati kredit bozori ishonchini oshiradi.
- Mikroprudensial va makroprudensial tartibga solish. Kapital, likvidlik va qarz yuki bo'yicha me'yorlar tizimli risklarni kamaytiradi. Ularni iqtisodiy sikl bilan moslashtirish (masalan, qarshi-siklik kapital bufer) kredit pufaklarining oldini oladi.
- Huquqiy himoya. Garov huquqini ro'yxatdan o'tkazish, undirish va bankrotlik protseduralarining samaradorligi kreditorlar huquqlarini mustahkamlaydi.

- Davlat ishtirokini kamaytirish. Davlat banklarini xususiylashtirish va imtiyozli kreditlash amaliyotini bozor tamoyillariga moslashtirish raqobat muhitini yaxshilaydi.
- Moliyaviy savodxonlik. Aholi va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish ortiqcha qarz yukining oldini oladi.
- Kredit axborot tizimini rivojlantirish. Kredit tarixi bo'yicha to'liq ma'lumot almashinuvi risk baholashning sifatini oshiradi.

Xulosa

Iqtisodiy o'sish tijorat banklari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq bu imkoniyatlardan samarali foydalanish bankning resurs bazasi, kapitali, aktivlar sifati, texnologik va kadrlar salohiyatiga bog'liq. Kredit salohiyatini oshirish bir martalik chora emas, balki uzluksiz va kompleks jarayon bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: resurslarni diversifikatsiya qilish va muddatlarini uzaytirish; kapitalni mustahkamlash va xalqaro standartlarga yaqinlashish; kredit riskini boshqarish tizimini takomillashtirish; raqamli texnologiyalarni keng joriy etish; kredit mahsulotlari va mijoz segmentlarini kengaytirish; malakali kadrlar va samarali korporativ boshqaruvni ta'minlash.

Shu bilan birga, bank tizimining barqaror rivojlanishi uchun makroiqtisodiy barqarorlik, kuchli huquqiy muhit va sifatli nazorat zarur. Faqat bank faoliyati va davlat siyosati uyg'unlashgandagina kredit o'sishi iqtisodiy o'sishning mustahkam va uzoq muddatli drayveriga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kapital yetarliligi, likvidlik va kredit risklarini tartibga solishga oid me'yoriy hujjatlari.
3. O'zbekiston Respublikasi bank-moliya tizimini isloh qilish strategiyasi hujjatlari.
4. Bazel bank nazorati qo'mitasining kapital va likvidlik bo'yicha standartlari (Bazel III).
5. Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki hisobotlari (moliyaviy sektor bahosi).
6. Mishkin F. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets.
7. Rose P., Hudgins S. Bank Management & Financial Services.
8. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash: darslik. – T.: Moliya, 2002. – 304 b.
9. Azlarova A.A. Bank menejmenti va marketingi: darslik. – T.: TDIU, 2021.

10. Berdiyarov B.T. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari: i.f.d. ... diss. – T., 2019.
11. Maqsudov B. O'zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. – Zenodo, 2026. – DOI: 10.5281/zenodo.18509048.
12. Norov A.R. Tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarini kreditlash metodologiyasining ekonometrik tahlillari // Green Economy and Development. – 2023. – Vol. 1, Iss. 10. – DOI: 10.55439/GED/vol1_iss10/a123.
13. Qurbonov R.B. Tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirishdagi muammolar va ularning yechimlari // International Finance & Accounting. – 2026. – Issue 2 (aprel). – ISSN 2181-1016.
14. Xolmamatov F.K. Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari // "Moliyaviy texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – 2023. – №2. – B. 22–35.